



Vebsayt: <https://involta.uz/>

SAMARQAND SHAHAR CHASHMA ARIG'I BO'YIDAGI DORIVOR O'SIMLIKLAR

Erdanova Sh.S. Islomov B.S.

Samarqand Davlat Universiteti

erdanova.shaxlo@gmail.com

Butun dunyoda yuz berayotgan global ekologik iqlim o'zgarishlari cho'llanish va qurg'oqchilikga olib kelib, atmosferada havosi haroratini bir necha gradusga ko'tarilishiga olib kelmoqda. Bunday ta'surotlarga o'ta sezgir bo'lgan biologik xilma-xillikning muhim komponentlari do'lgan o'simliklarni o'sish va rivojlanish holatiga bular salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Alohida bir hududning florasini har tomonlama o'rganish shu hudud turlarining to'liq tarkibini, shu bilan bir qatorda kamyob va kamayib borayotgan turlarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Tabiatda antropogen va texnogen omillar ta'sirining kuchayishi va buning natijasida ekologik sharoitning keskinlashuvi o'simliklar qoplamining sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelmoqda [1, 2].

Ayniqsa aholining tabiiy manbalarga bo'lgan ehtiyojining kun sayin ortib borishi va ulardan foydalanishning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasida o'simliklar florasining inqirozga uchrash holatlari kuzatilmoqda va bu jarayon Respublikamiz bo'ylab juda keng hududlarini egallamoqda. Turlarning tarqalishi va populyasiyalarning hozirgi holati haqida

ma'lumotlar yangi tadqiqotlarni talab etadi. O'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish, davlat kadastrini yuritish, biologik xilma-xilligini saqlash va undan oqilona foydalanishga katta e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar asosida muayyan natijalarga, jumladan, mahalliy floralarning tur tarkibini aniqlash, ularni tabiiy o'sish sharoitida saqlab qolish va muhofaza qilish, o'simlik xom ashyosi zaxiralarini aniqlash hamda yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan o'simlik turlarining kolleksiyalarini barpo qilish, kamyob va endem turlarni tur tarkibini aniqlash va ularning tarqalish xaritalari tuzish singari muhim natijalarga erishildi[3].

Samarqand shahar Chashma arig'iga mahalliy chiqindilarni chiqarilishi tabiatga, shu jumladan o'simliklar olamiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Hududda aholi sonining oshib borishi bilan tabiiy landshaftlarning o'zlashtirilishi ham kuchayib bormoqdaki, bu nafaqat alohida turlar, balki o'simlik jamoalarining ham qisqarishi va yo'qolib borishiga olib kelmoqda.

Shamarqand shahar Chashma arig'i va unga yaqin hududlarda tarqalgan dorivor o'simliklarini turlar tarkibini kuzatganimizda, tabobatda ishlatiladigan quyidagi turlar tarqalganligini kuzatdik (1-jadval).

Ushbu jadvalda dorivor suv o'simliklarini nomi, xayotiy shakli va tabobatda ishlatiladigan organlari keltirilgan.



1-rasm. *Veronica anagallis*



2- rasm. *Plantago major L. aquatica L.*

1-jadval

Samarqand shahar chashma arig'i bo'yida dorivor o'simliklari

№	Turning nomi (lotincha, o'zbekcha)	Oila nomi (lotincha, o'zbekcha)	Xayotiy shakli	foydalani-ladigan qismi
1	<i>Acorus calamus</i> L.- Igir	<i>Acoraceae</i> - Igirdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
2	<i>Alisma plantago</i> – <i>aquatic</i> L.- Bulduruqo't	<i>Alismataceae</i> - Alismadoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
3	<i>Cynodon dactylon</i> Pers.- Ajriq	<i>Poaceae</i> - Bug'doydoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
4	<i>Cnicus benedictus</i> L.- Sariq qushqo'nmas.	<i>Asteraceae</i> - Qoqio'tdoshlar	Bir yillik	Yer ustki qismidan
5	<i>Equisetum arvense</i> L.- Dala qirqbo'g'imi	<i>Equisetaceae</i> - Qirqbo'g'indoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
6	<i>Cichorium intybus</i> L. - <i>Sachratqi</i>	<i>Asteraceae</i> - Qoqio'tdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
7	<i>Melilotus officinalis</i> Dest. - Dorivor qashqarbeda	<i>Fabaceae</i> - Burchoqdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
8	<i>Mentha asiatica</i> Boriss. - Osiyo yalpizi	<i>Labiatae</i> - Labguldoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
9	<i>Nasturtium officinale</i> R.Br. - Dorivor qatqigul	<i>Brassicaceae</i> - Karamdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
10	<i>Phragmites communis</i> Trin. - Qamish	<i>Poaceae</i> - Bug'doydoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
11	<i>Plantago major</i> L.- Yirik bargli zubtutum	<i>Plantaginaceae</i> - Zupturumdoshlar	Ko'p yillik	Barglari
12	<i>Plantago lanceolata</i> L. - Nashtarbargli zubtutum.	<i>Plantaginaceae</i> - Zupturumdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
13	<i>Polygonum hydropiper</i> L. - Suvqalampiri	<i>Polygonaceae</i> - Torondoshlar	Bir yillik	Yer ustki qismidan
14	<i>Polygonum scabrum</i>	<i>Polygonaceae</i> -	Bir yillik	Yer ustki

	Moench. - Dag'al toron	Torondoshlar		qismidan
15	<i>Potamogeton crispus</i> L. - Kungirador g'ichchak	<i>Potamogetonaceae</i> - G'ichchakdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
16	<i>Poterium polygamum</i> W. Et K. - Ko'ko't	<i>Rosaceae</i> - Ra'nodoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
17	<i>Rosa canina</i> L. – Namatak	<i>Rosaceae</i> - Ranodoshlar	Buta	Mevalaridan foydalaniladi.
18	<i>Rubus anatolicus</i> Focke. - Maymunjon	<i>Rosaceae</i> - Ra'nodoshlar	Buta	Mevalari
19	<i>Rumex aquaticus</i> L. - Suv otqulog'i	<i>Polygonaceae</i> - Torondoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan
20	<i>Taraxacum officinale</i> Web. - Dorivor qoqio't.	<i>Asteraceae</i> - Qoqio'tdoshlar	Ko'p yillik	Ildizidan
21	<i>Veronica anagallis aquatica</i> L. - Buloq veronikasi	<i>Scrophulariaceae</i> - Sigirquyruqdoshlar	Bir yillik	Yer ustki qismidan
22	<i>Vinca minor</i> Rgl. - Kichik bo'rigul	<i>Apocynaceae</i> - Kendirdoshlar	Ko'p yillik	Yer ustki qismidan

Jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Samarqand shahar chashma arig'i bo'yida o'sadigan dorivor o'simliklardan *Asteraceae* va *Rosaceae* oilasining vakillari turlar soni bo'yicha boshqa oilalarga nisbatan ko'proq ekanligini ko'rish mumkin. Oilalar kesimida turlar foyizi quyidagichani tashkil etadi: *Asteraceae*, *Polygonaceae* va *Rosaceae* 13.63%, *Poaceae* va *Plataginaceae* 9.09% , *Acoraceae*, *Alismataceae*, *Equisetaceae*, *Fabaceae*, *Labiatae*, *Brassicaceae* va *Potamogetonaceae* 4.54% ni tashkil qilganini kuzatdik. Chashma arig'i bo'yida o'sadigan dorivor o'simliklarning 82 % ini yer ustki qismlaridan dorivorlik maqsadlarida foydalanib kelinadi. Xayotiy shakliga ko'ra bir yillik o'simliklar 18.2% , ko'p yillik o'simliklar 72.7%, butalar 9.1% 74 % ni tashkil etishini ko'rdik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Введенский А.И. Флора Узбекистана.-Ташкент: АН. УзССР, 1961.-с. 335-336.
2. M.Nabiyev "Botanika atlas-lug'ati" Toshkent 1969 y.
3. <https://hozir.org/bioxilma-xillikni-saqlash-masalalari-reja.html>
4. floruz.uz [Elektronnyy resurs]. – www.floruz.uz
5. <https://hozir.org/bioxilma-xillikni-saqlash-masalalari-reja.html>